

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH

Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li

"Raqqamli iqtisodiyot" kafedrası assistenti-stajyori.

Danayeva Zulhumor Abdusodiq qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi.

xumoradanayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13974916>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqqamli iqtisodiyot va uning ahamiyatlari hamda xizmatlar sohasining rivojlantirishda raqqamli iqtisodiyotning roli, xizmatlar sohasining transformatsiya xarajatlarini minimallashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonida raqqamli texnologiyalardan foydalanishni samarali joriy etish, O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirishda hukumat tomonidan soha rivoji uchun yaratilgan keng ko'lamlı imkoniyatlar, raqqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining rivoji hamda aholi bandligini oshirish uchun muallifning ilmiy qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqqamli iqtisodiyot, raqqamli texnologiya, xizmatlar sohasi, transformatsiya xarajatlari, innovatsiya, samaradorlik.

DEVELOPMENT OF THE SECTOR OF SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. In this article, the digital economy and its importance and the role of the digital economy in the development of the service sector, minimization of transformation costs of the service sector, effective introduction of the use of digital technologies in the process of service provision, the wide range created by the government for the development of the sector in the development of the service sector in Uzbekistan. The scientific views of the author for the development of the service sector in the conditions of the digital economy and increasing the employment of the population are highlighted.

Key words: digital economy, digital technology, service industry, transformation costs, innovation, efficiency.

РАЗВИТИЕ СЕКТОРА УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается цифровая экономика и ее значение и роль цифровой экономики в развитии сферы услуг, минимизации затрат на трансформацию сферы услуг, эффективном внедрении использования цифровых технологий в процессе обслуживания. доставка, широкий спектр, созданный правительством для развития отрасли в сфере развития сферы услуг в Узбекистане.

Научные взгляды автора на развитие сферы услуг в условиях цифровой экономики и

повышения занятости населения. население выделено.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, сфера услуг, затраты на трансформацию, инновации, эффективность.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. `Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalariniegallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borishimkoniyatini beradi" Butun dunyoda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda yuqori sur'atlarda sodir bo'lmoqda. Mutaxassislarning bahosiga ko'ra, ushbu sektor qatnashchilari yaqin kelajakda yaxshi raqamli foyda olishadi. Shuningdek, iqtisodiyotda ishsizlik darajasining kamayishi, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish xarajatlarini qisqarishiga erishiladi.

Hozirda Respublikamiz iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va xizmatlar sohasini modernizatsiyalash jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy ravishda transformatsiyalanib boruvchi iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishi, ularning xo'jalik faoliyatida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Bu ayniqsa, pandemiya davrida yaqqol namoyon bo'ldi va ko'p sohalarning raqamli iqtisodiyotga asoslanib ishlashining tezlashishiga olib keldi. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste'molchilar talabini to'liq va nisbatan tezroq qondirish, xizmat ko'rsatish sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Elektron tijorat tovarlar va xizmatlar realizatsiyasini tezlashtirish asosida inqirozlarni oldini olish imkonini beradi. Bunda virtual to'lovlar tizimi tovar aylanishini tezlashtiradi.

Internet reklama esa o'z navbatida reklama auditoriyasini yanada kengaytirib, nafaqat ma'lum bir hudud, balki butun dunyo miqyosida kengaytirish imkonini beradi. Respublikamiz hukumati tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoniga muvofiq "Raqamli O'zbekiston-2030 Strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda qishloq xo'jaligiga bog'liq xizmat ko'rsatish sohalariga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks choratadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning tannarxini kamaytirish, moliyaviy iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish strategiyaning eng oldi maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi — iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib, u turli xil xizmatlarni taqdim etish bilan shug'ullanadi. Bu soha ishlab chiqarish va savdo bilan bir qatorda, iqtisodiy o'sish va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Xizmatlar sohasiga quyidagi tarmoqlar kiradi:

- Transport va logistika: Yuk va yo'lovchilarni tashish, yuklarni saqlash va tarqatish xizmatlari.
- Sog'liqni saqlash: Tibbiy xizmatlar, shifokorlar, kasalxonalar, klinikalar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalari.
- Ta'lim: Maktablar, universitetlar, o'quv markazlari va boshqa ta'lim muassasalari.
- Turizm va mehmondo'stlik: Mehmonxonalar, restoranlar, sayohat agentliklari va turistik xizmatlar.
- Moliyaviy xizmatlar: Banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya firmalari va boshqa moliyaviy muassasalar.
- Axborot texnologiyalari: IT xizmatlari, dasturiy ta'minot ishlab chiqish, texnik yordam va boshqa IT xizmatlari.
- Konsalting va professional xizmatlar: Biznes konsalting, huquqiy xizmatlar, buxgalteriya va moliyaviy maslahatlar.
- Kommunikatsiya: Telefon, internet va boshqa aloqa xizmatlari.
- Kreativ xizmatlar: Dizayn, reklama, marketing va boshqa ijodiy xizmatlar.

Xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. U shuningdek, innovatsiyalar va texnologik rivojlanish uchun

ham asosiy maydon hisoblanadi. biz yuqorida xizmatlar sohasining eng ommaviy va keng tarqalgan turlarinigina sanab o'tdik. Agarda barcha xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash joriy etilsa nafaqat davlat balki jamiyat ham jadal rivojlanadi eng ko'lamli islohotlar va yangi xizmatlar yaratiladi. Bu borada mamlakatimizda bir necha yillardan buyon hukumat tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar buning yaqqol misoli bo'la oladi, ayniqsa oxirgi uch yillar davomida mamlakatimiz prezidenti tomonidan bu sohalarga juda qattiq e'tibor qaratilib kelinmoqda va amalda ham yuqori natijalarga ega erishilmoqda.

Yurtimizdagi xizmat ko'rsatish korxonalarini huquqiy hamda iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirilishi bilan bog'liq bo'lgan raqamli ma'lumotlar vositasida xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish ishlari bevosita amalga oshirilib kelinmoqda. Xizmatlar sohasining bunday taraqqiy etishi esa, mamlakat iqtisodiyotining yanada barqarorlashuvi hamda aholi turmush darajasining oshishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish bugungi kunda milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan vazifalardan biri bo'lib, raqamli texnologiyalar asosida sifat va samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha davlat o'z rolini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo'ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi. Xizmatlar sohasini raqamlashtirish mehnat bozorida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat korsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarib bormoqda. ayrim kasblarining yo'qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bashorat qilinmoqda. Raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko'nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim. Raqamli iqtisodiyot katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga asoslanganligi sababli, xodimlarning raqamli kompetensiyalari. xavfsizligi, ishonchliligi, katta hajmdagi axborotni uzoq muddat saqlashi alohida ahamiyat kasb yetadi. Zamonaviy turizm industriasini rivojlantirish uchun barcha manbalar, qulay tabiiy iqlim sharoit, boy tarixiy madaniy me'ros umuman olganda yuqori salohiyat mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, sohani raqamlashtirish va uni yanada takomillashtirish yalpi hududiy mahsulotning oshishiga, ishsizlikning qisqarishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojatnomasi.
2. Shavkat Mirziyoev "Yangi O`zbekiston strategiyasi", - Toshkent: "O`zbekiston" nashriyoti.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoniga muvofiq "Raqamli O`zbekiston-2030 Strategiyasi" 24-bet.
4. Qo`ziboev B.H. Mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini
5. takomillashtirish: iqt.fan.fal.dok.(PhD) avtoref.–Urganch.: 2021.
6. Alieva. G.I. Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" jurnali.
7. Akram Odilovich Ochilov, Azizbek Avaz o`g`li Xudoyorov Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo`llari. "XXI asr: fan va ta`lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. 2024-yil.
8. <https://www.texnoman.uz>
9. <https://sharqjurnali.uz>